

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTI MUTAXASSISLARINI PEDAGOGIK JARAYONNI LOYIHALASHTIRISHGA TAYYORLASH

Musavvar Do'smatova Shuhratovna

Navoiy davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti.

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hozirgi vaqtda pedagogik texnologiyata'lim berishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, pedagogik texnologiya, loyiha, loyihalash, ta'lim texnologiyasi, loyihalashtirish, texnologik jarayon, texnologik yondashuv, ta'limni texnologiyalashtirish.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash ko'zda tutilgan. YUNESKO tomonidan tan olingan pedagogik texnologiya oqimi 30-yillarda AQSHda paydo bo'ldi va 70-80 yillarda barcha rivojlangan malakatlarni qamrab oldi. Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun mo'ljallangan majmualari texnik vositalarni yaratilishida namoyon bo'ladi. Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan –"texnos" (Techne) -san'at, hunar va "logos" (logos) -fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon -bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir. Ana shu

ta'rifni tadqiqot mavzusiga ko'chirish mumkin, ya'ni: Pedagogik texnologiya -bu tarbiyachi(tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi(o'quvchi)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir Aynan ana shu mazmunda "texnologiya" termini va uning "o'qitish texnologiyasi", "ta'lim texnologiyasi", "ta'limda texnologiya" shakllari pedagogik adabiyotlarda foydalanila boshlandi va mualliflar ta'lim-texnologik jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga qarab ko'plab ifodalarga ega bo'ldi (uch yuzdan ortiq). Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya "ta'lim berishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmay, balki bu ta'limiy samaradorlikni oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo'li orqali, yo'l va materiallarni tuzish hamda qo'llash orqali,shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim jarayoni prinsiplarini aniqlash va eng maqbul yo'llarini ishlab chiqish maqsadidagi tadqiqotdir".Loyiha –aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli. Loyiha dastur, model, texnologik xarita ko'rinishda namoyon bo'ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashkil etadi. Loyihalash –boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat. Loyihalash "g'oya –maqsad –kutiladigan natija –taxmin qilish –bashoratlash –rejalashtirish" tizimiga asoslanadi.Loyihalash turli vositalar, ya'ni moddiy buyum, qurollar, masalan: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog'ozi, chizg'ich, qalam, marker, nusxa ko'chirish apparati (printer) va b. yordamida amalga oshiriladi.O'quv loyihalarini tayyorlash jarayoni qanday kechadi? Loyihani yaratish uchun pedagog: - loyihani yaratish; -jarayonni bosqichma-bosqich yoritish; -maqsadni aniq belgilash; -maqsadga mos vazifalarni aniqlash; -o'quv materiali mazmunini shakllantirish; -savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish; -jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash; -o'quvchi bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur. Ta'lim jarayonini loyihalash–alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish. Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari:1)ta'lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi; 2)ta'limning texnologik vositalari o'quvchilarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi; 3)loyihalashstrategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi; 4)loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va o'quvchi o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar

samaradorligiga bog'liq. O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishning asosiy bosqichi – o'quv jarayonini loyihalashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Mashg'ulotning maqsadi va natijasini belgilash.
2. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
3. Ta'lim resurslarini tanlash.
4. O'qitish va o'qish strategiyasini belgilash.
5. Mashg'ulot turini tanlash.
6. Mashg'ulotning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

Mashg'ulot maqsadi va natijasini belgilash – o'qitish va o'qish jarayonlarining eng muhim omili bo'lib, ta'lim jarayonida aynan ular etakchi o'rin tutadi. Mashg'ulotning maqsad va natijasi DTS talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, mashg'ulotning maqsadi tarbiyachi tomonidan o'quvchiga qanday bilim, ko'nikma va malakalarning berilishi nuqtai nazaridan emas, balki o'quvchilar tomonidan mashg'ulotda qanday bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi muhimligidan kelib chiqib belgilanishi zarur. Mashg'ulot maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi: 1) mashg'ulotda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi; 2) o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, ta'lim maqsadlari o'quvchilarning harakatlarida ifodalanadigan ta'lim natijalari belgilanadi. Ta'lim texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti – kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o'qitish va o'qish jarayoni, natija qo'yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish – mashg'ulotning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Ta'lim resurslarini tanlash – mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi, o'quvchi va mashg'ulotni tashkil etish uchun ta'lim vositalarining o'rinli tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi. O'qitish va o'qish strategiyasi – belgilangan o'quv materiallarini o'quvchilar ongiga etkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim metodi, shakllarining

amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi. Mashg'ulotning turini tanlash –o'qituvchining mahoratiga ko'ra mashg'ulotning didaktik maqsadi, o'quv materialining mazmuni, mashg'ulot uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi. Mashg'ulotning texnologik xaritasi –mashg'ulot ishlanmasining asosiy o'zagini tashkil etadi. U mashg'ulot turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Mashg'ulotning texnologik xaritasi xususida ma'ruzaning keyingi o'rinlarida alohida to'xtalib o'tiladi. Ta'lim jarayonni loyihalash: loyiha –mazmun –faoliyat uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Adabiyotlar

1. <https://lex.uz/docs/4372737?ONDATE=21.05.2021%2000>
2. Avezmurodovich O. R. Difficulties in learning to write and read left-handed children //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), 40. –2020. –Т. 45.
3. Qo'ldoshev R. Чапақай болаларни мактабга қандай тайёрлаш керак? //ЦЕНТРАУЧНЫХПУБЛИКАЦИЙ(buxdu.uz). –2021. –Т. 2. –No. 2.
4. Hamroyev R. A., Qoldoshev A. R., Hasanova A. M. Methods of teaching 1st grade students to use writing tools effectively //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). –2021. –Т. 10. –No. 1. –С. 168-174.
5. Qoldoshev R. A. Assistant pedagogue to children left-handed reading in the last year //Globe Edit.–2020. –2020
6. Qo'ldoshev R. Left-handedness and the reasons for its occurrence //ЦЕНТРАУЧНЫХПУБЛИКАЦИЙ(buxdu.uz). –2021. –Т. 7. –No. 7.
7. Qo'ldoshev R. A. The content of pedagogical assistance in the period of adaptation of left-handed first-graders to school, adaptation to school and its features among students of the first year of study //Pedagogik mahorat.-Buxoro. –2020. –Т. 5. –С. 132-135.
8. Кулдашев Р. А. ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРДА ЁЗУВ ҚУРОЛЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ: РА Қўлдошев, Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. –2021. –No. 3. –С. 198-217.
9. Qo'ldoshev A. R. et al. Forming Writing Skills in Left-Handed Students //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 10.10. Qoldoshev A. R., Yodgorova F. G. How to find out right or left //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). –2021. –Т.